

MATEMATIKA DARSLARIDA AXBOROT KOMUNIKATSION TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Tursunova Nigina Kaxramonovna

Samarqand shahar 59- umumiy orta ta'lim maktab matematika fani o'qituvchisi

Annotatsiya: *Pedagogik texnologiyalar ta'lim maqsadiga erishish jarayonining umumiy mazmuni, ya'ni, avvaldan loyihalashtirilgan ta'lim jarayonini yaxlit tizim asosida, bosqichma-bosqich amalga oshirish, aniq maqsadga erishish yo'lida muayyan metod, usul va vositalar tizimini ishlab chiqish, ulardan samarali, unumli foydalanish hamda ta'lim jarayonini yuqori darajada boshqarishni ifodalaydi. Ushbu maqolada "To'rtburchaklar oilasi" mavzusidagi noan'anaviy dars tizimini misol qilib olingan.*

Kalit so'zlar: *Pedagogik texnologiyalar, To'rtburchaklar oilasi, qavariq to'rtburchaklar, par a llelogramm, to'g'ri to'rtburchak, romb, kvadrat va trapestiya.*

Ma'lumki, hozirgi paytda pedagogik va axborot texnologiyalarini ko'plab fanlarni o'qitishda qo'llash orqali ta'lim sifatini oshirish mumkin [1-30]. Ta'limning bugungi vazifasi o'quvchilarni kun sayin oshib borayotgan axborot ta'lim muhiti sharoitida mustaqil ravishda faoliyat ko'rsata olishga, fanlarni o'qitishda pedagogik texnologiyalarni samarali tadbiiq etilishi ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Biz bilamizki "To'rtburchaklar oilasi" mavzusidagi noan'anaviy dars tizimini misol tariqasida keltirishni lozim topdik. Darsning texnologik xaritasini quyidagicha tuzush mumkin:

Texnologik xarita

Mavzu To'rtburchaklar oilasi

Maqsad, vazifalar O'quvchilarni to'rtburchak larga doir bilimlar kompleksi bilan qurollantirish. O'quvchilarga Parallelogramm, to'g'ri to'rtburchak, romb, kvadrat va trapestiyaga oid bilimlarni o'rgatish.

O'quv jarayoni mazmuni To'rtburchaklarning ta'riflari, umumiy xossalari, qavariq to'rtburchaklar, par a llelogramm, to'g'ri to'rtburchak, romb, kvadrat va trapestiya.

O'quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi Metod: Og zaki bayon qilish, suhbat-munozara, aqliy hujum, 5x5x5, klaster, Venn diagrammasi, blit-o'yin texnologiyalari. Forma: Amaliy mashg'ulot, kichik guruhlarda va jamoada ishlash. Vosita: Kompyuter, kadoskop, slaydlar, ekran, tarqatma materiallar, darslik va o'quv qo'llanmalar. Usul: Tayyor yozma materiallar, chizmalar asosida. Nazorat: Og zaki nazorat, savol-javoblar, yozma ish, test o'z-o'zini nazorat qilish, kuzatish. Baholash: Rag'batlantirishlar, 5 ballik sistema asosida.

Kutiladigan natijalar O'qituvchi: Mavzuning barcha o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishiga erishadi.

O'quvchilarning faolligini oshiradi. O'quvchilarda darsga nisbatan qiziqishni uyg otadi. O'quvchilarda mustaqil, yakka va jamoa bo'lib ishlash ko'nikmalarining shakllanishiga erishadi. Bir vaqtning o'zida aksariyat o'quvchilarni baholaydi. O'zining oldiga qo'ygan ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlariga erishadi.

O'quvchi: Yangi bilimlarni egallaydi. Mustaqil, yakka va jamoa bo'lib ishlashni o'rganadi. Nutq rivojlanadi va eslab qolish qobiliyati kuchayadi. O'z -o'zini nazorat qilishni o'rganadi. Qisqa vaqt ichida ko'p ma'lumotga ega bo'ladi.

Kelgusi rejalar (tahlil, o'zgarishlar) O'qituvchi: Ilg'or pedagogik texnologiyalarni o'zlashtirish va darsda tatbiq etish, takomillashtirish. O'qitishning an'anaviy va noan'anaviy usullari integrastiyasi bo'yicha o'z ustida ishlash. Pedagogik mahoratni oshirish.

O'quvchi: Matn ustida mustaqil ishlashni o'rganish. O'z fikrlarini qisqa va ravon bayon qilish. O'rganilayotgan mavzu bo'yicha internet va boshqa adabiyotlardan qo'shimcha materiallar topish, ularni o'rganish. O'zi va boshqalarning fikrlarini tahlil qilib yagona to'g'ri echimga kelish malakasini hosil qilish.

Darsda to'rtburchaklarning besh turi parallelogramm, to'g'ri to'rtburchak, romb, kvadrat, trapeziya o'rganilishi rejalashtirilishi tufayli guruh o'quvchilari ham shu nomlardagi beshta kichik guruhlariga ajratiladi, ya'ni 5x5x5 raqamli texnologiyadan foydalaniladi. 5x5x5 texnologiya beshta kichik guruhda beshtadan o'quvchi bo'lib, ularga besh xil topshiriqlar berilishi ma'nosini bildiradi. Kichik guruhlardan har biriga to'rtburchaklardan birini atroflicha o'rganib kelishlari oldingi darsda vazifa qilib beriladi.

Kichik guruhlar tomonidan ekrandagi ranglarga mos yasab kelingan to'rtburchaklar o'quv x onasining deraza oynalariga yopishtiriladi, eshik-deraza pardalariga osib qo'yiladi. Sinfga kirgan odam o'zini xuddi ertaklardagidek to'rtburchaklar olamiga tushib qolgandek his qiladi.

Oldingi darsda o'rganilgan mavzu o'qituvchi-murabbiy va o'quvchilar hamkorligida takrorlanib mustahkamlangach har bir kichik guruh o'zlariga belgilangan to'rtburchak turiga doir bilimlar ini bayon qilishadi, bir-birlarining fikrlarini to'ldirish adi, guruhlararo savol-javoblar o'tkazildi va oxirida o'qituvchi tomonidan bilimlar umumlashtiriladi.

To'rtburchak turlarini bayon etishga chiqqan o'quvchilarning shu tushunchalarga doir she'rlar, maqollar, qo'shimcha adabiyotlar va internet materiallaridan foydalanishlarining rag'batlantirilishi darslarni shaklan va mazmunan yanada boyitadi.

O'qituvchi o'quvchilarning mavzu bo'yicha fikrlarini umumlashtirishda Venn diagrammasi texnoogiyasidan foydalanishi mumkin. Dastlab o'quvchilardan to'rtburchak turlari bo'yicha umumiy va o'ziga xos xossalari so'raladi.

Odatda o'quvchilar diagrammadagi ma'lumotlarni hamkorlikda o'rganishib to'rtburchaklar turlarining umumiy tomonlariga nisbatan farqli tomonlari ko'p ekan degan xulosaga kelishadilar.

Ekranga to'rtburchaklarga doir formulalar majmu i chiqarilib, ular ichidan to'g'rilarini ajratib daftarlarga ko'chirishlari o'quvchilarga taklif etiladi, ya'ni yozma aqliy hujum texnologiyasidan foydalaniladi. Ish yakunlangach to'g'ri javoblar ekranga chiqariladi. O'quvchilar ishlarini to'g'ri javoblar bilan taqqoslab yo'l qo'yilgan xatolarini o'zlari joyl aridan turib tan olishadi.

Mavzuga doir bilimlar o'quvchilarda shakllangach va formulalar o'rganilgach to'rtburchak turlariga mos beshta tekstli masalalar matnlari ekranga chiqarilib barcha kichik guruhlariga ularni tez bajarishlari taklif etiladi, ya'ni bl ist-o'yin texnologiyasidan foydalaniladi. Qaysi kichik guruhning ishni nechanchi o'rinda bajarganligi o'qituvchi tomonidan e'lon qilib turiladi.

Ishni birinchi bo'lib yakunlagan kichik guruh birinchi masalaning yechilish algoritmini bayon qilgan bo'lsa, ikkinchi masalaning yechilishi javob berishga talabgor bo'lmagan kichik guruhdan so'ralib, aksariyat o'quvchilarning o'zaro tortishuvlari yuzaga keltiriladi, natijada masalaning to'g'ri echimiga o'quvchilar faolligi asosida erishiladi.

Blist-o'yin texnologiyasi nazariy bilimlardan amaliy ishlarga o'tishda ko'prik vazifasini bajaradi. Amaliy ish ham o'ziga xos tarzda boshlanadi. Kichik guruhlar sardorlari yopiq qutidan bittadan figura olishib joylariga qaytishadi. Ekranga kichik guruhlardagi figuralarga mos beshta masala matnlari va ularni bajarishga qo'yilgan quyidagi talablar chiqariladi: ekrandan o'zingizdagi figuraga mos masalani ajratib oling; figuraning shaklini daftaringizga chizing; masala shartini tahlil qilib berilgan va so'ralgan ma'lumotlarni ajratib yozing; tegishli formulalardan foydalanib hisoblang; olingan natijani asoslab bering.

O'qituvchi har bir kichik guruhga kelib ishlarni tekshiradi, suhbatlashadi va natijalarni e'lon qildi.

Darsliklarda "To'rtburchaklar oilasi" mavzusi yo'q, biroq unga doir o'quvchilar tomonidan topib kelingan formulalar "Evrika" rubrikasi ostida ekranga chiqarilib taqdim etiladi:

1) parallelogrammning o'tkir burchagi c , diagonallari kesishish nuqtasidan teng bo'lmagan tomonlarigacha bo'lgan m va p masofalar berilgan bo'lsa, d_1 (katta), d_2 (kichik) diagonallar va S yuzi quyida formulalar yordamida hisoblanadi: $d_1 = \frac{2S}{p} + m$, $d_2 = \frac{2S}{p} - m$

$d_1 = \frac{2S}{p} + m$; $d_2 = \frac{2S}{p} - m$.

$\sin A \sin B \sin C$

2) Rombning yarim perimetri p , diagonallari yig'indisi m bo'lsa, uning

$2m - p$

yuzi S ——— formula yordamida hisoblanadi.

3) Rombning kichik burchagi α , unga ichki chizilgan aylananing radiusi r bo'lsa, uning tomoni $a = 2r$ — formula yordamida topiladi.

sina

Formulalar ko'chirib olingach, ekranga test variantlari chiqarilib, o'quvchilarga ularni yozma bajarishlari taklif etiladi:

- 1) To'rt burchak ichki burchaklar yig'indisi A. 1800, B. 3600, C. 900, D. 2700.
2. Qarama-qarshi uchlarni tutashtiruvchi kesmalar to'rtburchakning A. diagonali, B. balandligi, C. bissektrisasi, D. o'rta chizig'i.
3. Hamma tomonlari teng to'g'ri to'rtburchak
A. romb, B. trapestiya, C. kvadrat, D. parallelogramm.
4. Hamma tomonlari teng parallelogramm
A. kvadrat, B. trapestiya, C. romb, D. to'g'ri to'rtburchak.
5. Trapestiya yuzini topish formulasi
A. $s = \frac{a+b}{2} \cdot h$, B. $s = a \cdot h$, C. $S = a \cdot h$, D. $s = a \cdot h$.
6. Romb diagonallari o'zaro
A. parallel, B. teng, C. perpendikulyar, D. ayqash.
7. To'rtburchakning burchaklari o'zaro 3:4:5:6 nisbatda bo'lsa, kichik burchak toping
A. 900, B. 300, C. 600, D. 700.
8. Agar kvadrat tomoni 5 marta kattalashtirilsa uning yuzi necha marta ortadi?
A. 5, B. 10, C. 25, D. 50

To'g'ri bajarilgan testlar natijalaridan "Barkamol" so'zi paydo bo'ladi. Demak, o'zining oldiga qo'yilgan vazifalarini vaqtida, mukammal bajarib yurgan odam barkamol avlod bo'lar ekan deb, o'qituvchi quyidagi she'rni o'qishi mumkin:

Qunt bilan o'rganib bu buyuk fanni, Shonu-shuhratga o'rang ona V atanni, Aziz yurtimning aziz farzandi, Bilib q o'y-ki seni Vatan kutadi.

Al-Xorazmiy siyosida kiyinib olgan bir o'quvchi ajdodlarimizning to'rtburchaklardan to'rt turi to'g'ri to'rtburchak (mustatil), romb (muayyan), kvadrat (murabba), trapestiya (muxarrif)larni bir sinfga kiritib, parallelogrammni alohida o'rganganliklarini, davlatimiz gerbidagi ikkita kvadratdan tashkil topgan sakkiz burchakni musamman atashganliklarini hikoya qilib beradi, ya'ni darsda tarixga murojaat etiladi.

Kichik guruhlar sardorlari o'qituvchi stoli ustidan bittadan paket olish adi. Paketda to'rtburchak turlaridan birining qiyqimlari bo'lib, ulardan figuraning o'zini yasash va unga doir o'rganilgan bilimlarni qisqa og'zaki bayon qilishlari taklif etiladi. Shu asosda mavzuda o'rganilgan bilimlar o'quvchilar va o'qituvchi-murabbiy hamkorligida umumlashtiriladi.

Sardorlarga o'zlarining kichik guruhlaridagi o'quvchilarning bilimlarini baholab berishlari so'raladi. Sardorlar sheriklarining darsdagi faoliyatlarini e'tiborga olgan holda ularning bilimlarini baholashadi. Biroq o'qituvchi sardorlar qo'ygan baholarga

tanqidiy yondashishi zarur. Faol, bilimlarini yorqin namoyon qilgan o'quvchilarni rag'batlantirish bilan birgalikda, o'zlarining real o'quv imkoniyatlari darajasida ishlamagan o'quvchilarni nomma nom qayd e'tib, ularga sardorlar e'lon qilganidan past baholar qo'yilishi o'rinli bo'ladi.

Mustahkamlash etabida o'quvchilarga to'rtburchaklar oilasini klaster isulida tasvirlab, shu to'rtburchaklardan qaysi kasblarda foydalanishimiz mumkinligini aniqlab olamiz va kasblar haqida malumotlar beramiz.

1. Doppi tikishda
2. Uy jihozlari
1. Qurilishda 2. Bezak berishda
3. Plitalar
- tayyorlashda 3. Ekin maydonlari
4. Tikish bichishda
1. Koprik qurishda
2. Uy qurishda
3. Buyumlar
- kvadra
- paralelogramm
1. Duradgorlik
2. Mebel
- yasahda
3. Oyinchoqlar yasashda
1. Quruvchi
2. Arxitektor
4. Me'mor
3. Muhandis
5. To'quvchi

Matematika darslarida interfaol usullarini qo'llash orqali kasbiy ko'nikma va malaka hosil qildirish. Bunda o'quvchilar ongini rivojlantirish ishlari olib borilgan.

O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishda matematika darslarining roli o'rganilgan. Bu sohada ko'p ishlar qilingan. Matematika darslarida masala va misollar yechish jarayonida turli xil kasblarga qiziqtirib boorish ishlari mavjud.

O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishda matematika darslarining roli katta ahamiyatga ega. Shu sababli kasb-hunarga yo'naltirishda matematika darslarining o'rni muhim sanaladi.

FOYADLANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Умарова У.У. (2020). Использование педагогических технологий в дистанционном обучении moodle, Проблемы педагогики 51:6, С. 31-34

2. Умарова У.У. (2020). Применение триз технологии к теме «Нормальные формы для формул алгебры высказываний», Наука, техника и образование. 73:9, С. 32-35.

3. Умарова У.У. (2020). Роль современных интерактивных методов в изучении темы «Множества и операции над ними», Вестник науки и образования. 94:16, часть 2, С. 21-24.

4. Mardanova F.Ya., Rasulov T.H. (2020). Advantages and disadvantages of the method of working in small group in teaching higher mathematics, Academy, 55:4, pp. 65-68.

5. Расулов Х.Р., Джуракулова Ф.М. (2021). Баъзи динамик системаларнинг сонли ечимлари хақида, Scientific progress, 2:1, С. 455-462.

6. Boboeva M.N., Rasulov T.H. (2020). The method of using problematic equation in teaching theory of matrix to students, Academy, 55:4, pp. 68-7